



KIBERXAVFSIZLIK, SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH VA BU YO'LDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Xodjiyeva Sevinch Sobir qizi

*Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik
yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Email:sevinchxodjiyeva981@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsga doir ma'lumotlarni turli xil kiber jinoyatchilardan himoya qilish va uning samarali usullari yoritib beriladi. Bu maqolada axborot va ma'lumotlar almashinuvi rivojlanayotgan davrda kiberxavfsizlik tushunchasi jamiyat va insonlar orasida yangilik emasligi haqida batafsil tushuntiriladi. Shuningdek, insonlarning mobil qurilmalar, kompyuterlarini turli ko'rinishdagi viruslar va zararli hujumlardan asrash va raqamli texnologiyalardan foydalanganda har doim hushyorlikni oshirishlari ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Kiberxavfsizlik, kiber jinoyatchilar, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlar, ogohlik, tarmoqlar.

Kirish:

Hozirgi jadallik bilan rivojlanayotgan davrda zamonaviy texnologiyalar, elektron qurilmalar ijtimoiy hayotimizning ajralmas bir qismiga aylanib ulgurdi. Istiqbolda kundalik hayotni zamonaviy gadjetlar, kompyuter, telefonlarsiz tasavvur etish deyarli imkonsiz holatga aylanadi. Bir tomondan, raqamli texnologiyalar asrida yashash ko'plab murakkab vazifalarning bajarilishini sezilarli darajada osonlashtirgan bo'lsada, ikkinchi tomondan, ijtimoiy muhitda axborot almashinuvi jarayonining keskin tezlashuviga olib keldi. Shuningdek, shaxsga doir ma'lumotlarning internetda tarqalib ketishi, kiber jinoyatchilikning sodir etilishi va ko'payishiga asosiy sabab bo'ldi.

Asosiy qism:

Darhaqiqat, O'zbekiston rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kirgani sari ijtimoiy hayotimizdagi barcha sohalar, xususan, ta'limdan tortib tibbiyotgacha, harbiy sohadan tortib qishloq xo'jaligigacha raqamlashtirish jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Biroq ikkinchi tomondan, davlat qanchalik gullab-yashnasa, uning resurslarini himoyalaydigan dastur va saytlarda shunchalik tahdidlar va zararli hujumlar ko'payib boradi. Ayniqsa, siyosat va harbiy sohadagi sir tutilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarga kelganda, davlat kiberxavfsizlik va murakkab ishlangan tizimli dasturlarga, ushbu sohadagi mutaxassislariga ehtiyoj sezadi.

Ushbu maqolamni yozishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining



“2017–2021” yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini, ilm-ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirilgan davlat dasturi to‘g‘risidagi va “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlarida keltirilgan ma‘lumotlar asos bo‘lib xizmat qildi.

Kiberxavfsizlik tushunchasi tashkilotlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Xususan, CSEC2017 Joint Task Force manbasida kiberxavfsizlikka quyidagicha ta'rif beriladi:

Kiberxavfsizlik-hisoblashlarga asoslangan bilim sohasi bo'lib, buzg‘unchilar mavjud bo‘lgan sharoitda amallarning to‘g‘ri bajarilishini kafolatlash uchun o‘zida texnologiya, inson, axborot va jarayonlarni mujassamlashtiradi. U xavfsiz kompyuter tizimlarini yaratish, amalga oshirish, tahlillash va testlashni o‘z ichiga oladi. Tarmoq sohasida faoliyat yuritayotgan Cisco tashkiloti esa kiberxavfsizlikka tizim, tarmoq va dasturlarni raqamli hujjatlardan himoyalash amaliyoti deya ta'rif beradi.

"Kiberxavfsizlik markazi" DUK(Davlat unitar korxonasi) tahlillariga ko'ra, 2020-yilda internetning milliy segmenti (.uz) veb-saytlarida 27 milliondan ortiq zararli va shubhali tarmoq hujumlari kuzatilgan. Bularning asosiy qismi botnet tizimlaridagi faollikka tegishli bo'lib, u 19491783 ta. Keyin esa, himoyasiz http protokolida 4631375 ta va boshqa insidentlarda ham nisbatan kichikroq kiberhujumlar ro'yxatga olingan. Kiberxavfsizlik bo‘yicha global reytinglarda 2020-yil sarhisobiga ko'ra, O'zbekiston Milliy kiberxavfsizlik indeksi(National Cyber Security Index) da 90-o'rinda, Global kiberxavfsizlik indeksida (Global Cybersecurity Index) da 52- o'rinni egallab kelmoqda.

Xulosa:

Xulosa o'rnida aytish kerakki, hozirda axborot texnologiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassisning kiberxavfsizlikning fundamental bilimlariga ega bo'lishlari talab etiladi. 21-asr raqamli texnologiyalar asrida yashash nafaqat zamonaviy va murakkab dasturlar, innovatsiyalarga, balki zamonaviy ko'rinishdagi zararli, virtual hujumlarga ham tayyor turishlari va kerakli chora-tadbirlar ko'rishlarini taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **Thomas A.Johanson** " Cybersecurity, Protecting Critical Infrastructures from Cyber Attack and Cyber Warfare.
2. **“Cyberwarfare: Threats to Critical Infrastructure”** (Kristan Stoddart)
3. <https://zamin.uz>



4. **ENISA** (European Union Agency for Cybersecurity) (2022) Threat landscape report
5. Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi (ITU). 2021
6. Global Cybersecurity Index 2021
7. 6.“Protection of critical infrastructures from advanced combined cyber and physical threats: The PRAETORIAN approach (International Journal of Critical Infrastructure Protection).